

**MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA “USTOZ SHOGIRD”
AN’ANALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Ganibayeva Saliya Sharipbay qizi

18-umumiyo`rta ta`lim maktabi

Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada milliy qadriyatlar asosida ustoz-shogird an’anasini rivojlantirishning o’rni va ahamiyati yoritilgan. Ustoz va shogird o’rtasidagi munosabat orqali nafaqat bilim, balki axloqiy, ma’naviy va vatanparvarlik qadriyatlari shakllanishi ko’rsatib o’tilgan. Shuningdek, maqolada ushbu an’anani zamonaviy ta’lim jarayoniga uyg’unlashtirishning ahamiyati va yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: ustoz-shogird an’ansi, milliy qadriyatlar, ta’lim tizimi, tarbiya, ma’naviyat, halollik, vatanparvarlik, odob, yosh avlod.

Аннотация: В данной статье рассмотрено значение развития традиции наставничества на основе национальных ценностей. Отмечено, что отношения между учителем и учеником способствуют не только передаче знаний, но и формированию моральных, духовных и патриотических качеств личности. Также анализируется важность интеграции этой традиции в современную систему образования и её роль в воспитании гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: традиция наставничества, национальные ценности, система образования, воспитание, духовность, честность, патриотизм, культура, молодёжь.

Annotation: This article explores the importance of developing the mentor-apprentice tradition based on national values. It highlights that the relationship between mentor and student contributes not only to the transfer of knowledge but also to the formation of moral, spiritual, and patriotic qualities. The study emphasizes the significance of integrating this tradition into the modern education

system and its role in nurturing a well-rounded and morally mature young generation.

Key words: mentor-apprentice tradition, national values, education system, upbringing, spirituality, honesty, patriotism, culture, youth.

Ustoz-shogird an'anasi — bu o'zbek xalqining qadimiy tarbiyaviy tizimi bo'lib, unda bilim, hunar va axloqiy fazilatlar ustozdan shogirdga o'tadi.

Bu tizim orqali nafaqat kasbiy mahorat, balki insoniylik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob va hurmat qadriyatlari shakllanadi. Biz avvalambor Milliy qadriyat atamasi bilan tanishib o'taylik.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning madaniy, ma'naviy va axloqiy boyligi, ya'ni xalqning o'ziga xos odatlari, urf-odatlari, an'analari.

Ustoz-shogird munosabatida quyidagi qadriyatlar muhim o'rin tutadi:

Ustozga hurmat, shogirdga e'tibor.

Odob, sadoqat, halollik.

Kattaga hurmat, kichikka izzat.

Mehnatsevarlik va sabr-toqat.

Ustozning eng buyuk burchi - yurt ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, aql-idrokli, faxm-farosatli va qobiliyatli shogirdlar tayyorlashdan iborat. Ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun avvalo uning o'zi kasbiy salohiyatli, ma'naviy barkamol, keng dunyoqarash va sog'lom fikrga ega bo'lmog'i lozim. Qadimdan ustoz-shogirdlik an'alarida ustoz nafaqat shogirdiga yul-yuriq, ko'rsatma beribgina qolmay, o'z navbatida, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o'zidan keyin ish-tajribani, bilim va mahoratni avloddan-avlodga o'tishiga imkoniyat yaratgan. "Ustoz-shogird" munosabatlari muayyan dastur, reja asosida olib borilishi maqsadga muvofiq. Bu borada shogird bilan olib boriladigan ish shakllarida ustoz quyidagilarga rioya qilishi lozim:¹

- shogirdga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda zamon talablariga, jamiyat qonun-

¹ . Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

qoidalariga mos bilimlar bilan qurollantirish;

- yagona maqsad sari intilishga, ishning natijasini ko'ra bilishga o'rgatish;
 - shogirdning ruhiyati, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsata olish va o'z o'rnida talabchan bo'lish;
 - o'z-o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga odatlantirish;
 - muvaffakiyatni ko'zlagan xolda olg'a odimlash;
 - ijobiy qaytuvchan aloqani o'rnatish;
 - tarbiyada turli xil ilg'or usullar va innovatsion texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratish;
 - tarbiya jarayonida ustozning har tomonlama: ma'naviy, axloqiy, kasbiy jihatdan namuna bulishi;
 - burch, mas'uliyat, javobgarlik hissini shakllantirib borish va xokazo.
- Shuningdek, ustoz-shogird an'alarida quyidagi pedagogik tamoyillar muhim o'rin tutadi:

Demak, milliy qadriyatlar asosida "Ustoz-shogird" an'alaridan foydalanish ko'zlangan samarani beradi. Pedagogik ta'limot g'oyalariga ko'ra amaliy ko'nikma va malakalar bevosita mashqlantirish, yani muayyan faoliyatni amalda bevosita bajarish orqali shakllanadi. "Ustoz-shogird" an'atasi esa o'quvchilar, talaba yoshlar hamda yosh pedagoglarda ijodiy izlanishni vujudga keltirishi, pedagogik faoliyat jarayonida ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishi, shogirdagi iqtidorni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi bilan ahamiyatlidir.² Milliy qadriyatlar asosida ustoz-shogird an'asini rivojlantirish — bu nafaqat ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, balki jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlashning eng muhim omillaridan biridir. Chunki ustoz-shogird munosabatida insoniylik, mehr-oqibat, hurmat, sadoqat, halollik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar amaliy tarzda namoyon bo'ladi. Har bir ustoz o'z shogirdiga nafaqat bilim, balki hayotiy tajriba, odob, milliy g'urur va ma'naviy tozalikni singdiradi. Demak, milliy qadriyatdan,

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021

<https://scientific-jl.com/>

avvalo, fan va ta'lim taraqqiyotida kishilar turmush sharoitini yaxshilashda, oila kamoliga erishishda, jamoat manfaatlarini yuksaklikka ko'tarishda, jamiyat taraqqiyoti saviyasini tezlashtirishda va davlatning iqtisodiy hamda ma'naviy ma'rifiy qudratini yuksaltirishda foydalanish maqsadga muvofiq. Kishilar ma'naviy olamining shakllanishi va tarakkiyoti, ularning ma'naviy boyishi uchun kadr-qimmatga ega bo'lgan narsa hodisalar ma'naviy qadriyatlar deyiladi. Ular inson faoliyati, mehnat yaratuvchanligi, ijodkorligining maxsuli hisoblanadi. Masalan, rassom, shoir, san'at asarlari, ilmiy tadqiqotlar, olam haqidagi asarlarning mualliflari ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchilardir. Har bir xalqning uzi uchun e'zozli qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari, qadriyatlari bor. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham uzining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, o'zbek xalq maqollari, hadis va hikmatlarini olaylik. Ularning har biri o'ziga xos ma'naviy boylik, qadriyatdir. Bilim, ilm ham oliy qadriyatlardan sanaladi. Hadislarda bilimni takrorlab borish, bilimni fakat uni olishga ishtiyoqmand kishilargagina berish joizligi qayd qilingan. Shuningdek, hadislarda bilim kishining faxm-farosatini o'tkir, zexrini zukko, xotirasini kuchli kilishi ta'kidlanadi va "Ilmu hunarni Chin (Xitoyda) dan bulsa ham borib o'rganinglar," - deb da'vat etiladi. Shunga ko'ra "Olim bo'l yoki bilim o'rganuvchi bo'l, yoki tinglovchi bo'l, yo bo'lmasa bilimga va ilm ahdiga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, xalok bo'lasan",- deyiladi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy dunyosiga turli g'oyalar, g'arbona qarashlar kirib kelayotgan bir paytda, milliy qadriyatlarga asoslangan ustoz-shogird an'anasini saqlash — yoshlarni milliy o'zligimiz, tariximiz va madaniyatimiz ruhida tarbiyalashning eng ishonchli yo'lidir. Ustoz-shogird tizimi yoshlarni o'z xalqining urf-odatlarini, an'analari va ajdodlar merosiga hurmat ruhida kamolga yetkazadi.³

³ Raximova, M. Ustoz-shogird an'analari va ularning zamonaviy ta'limdagi o'rni. — "Ta'lim

Shuningdek, ustoz-shogird an'anasini takomillashtirish zamonaviy ta'limda ham katta ahamiyatga ega. Tajribali pedagoglar yosh o'qituvchilarni tarbiyalashda o'z tajribasini ulashadi, bu esa ta'lim sifatining oshishiga, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatining yuksalishiga olib keladi. Ustoz va shogird o'rtasidagi mehrli, samimiy va ishonchli munosabat esa kelajak avlodning ma'naviy yetuk, bilimli va vatanparvar bo'lib voyaga yetishida beqiyos rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, ustoz-shogird an'ansi milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo'lib, uni bugungi zamonaviy ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirish, yoshlar qalbida ustozga hurmat va ilmga muhabbat tuyg'usini kuchaytirish — har bir o'qituvchi, ota-ona va jamiyat a'zosi zimmasidagi muqaddas burchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Raximova, M. Ustoz-shogird an'analari va ularning zamonaviy ta'limdagi o'rni. — “Ta'lim taraqqiyoti” jurnali, №4, 2022.